

## INTELLEKTUAL MULK HUQUQI: TOVAR BELGILARINING HUQUQIY MUHOFAZASI

*Ismoilov Mavlonbek Matyoqubovich*

*Toshkent shahar*

*Fuqorolik ishlari bo'yicha*

*Yakkasaroy tumanlararo sudi raisi o'rinnbosari.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada intellektual mulk huquqi tizimida tovar belgilarining ahamiyati va ularning huquqiy muhofazasi masalalari tahlil qilinadi. Tovar belgilarining biznes va iqtisodiyotdagi roli, ularni himoya qilish usullari, xalqaro va milliy huquqiy normalar asosida berilgan huquqiy kafolatlar hamda muhofaza jarayonida uchraydigan asosiy muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligidagi tovar belgilarining huquqiy muhofazasiga oid asosiy normalar ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Intellektual mulk, tovar belgisi, huquqiy muhofaza, biznes, qonunchilik, O'zbekiston, patent, raqobat, xalqaro huquq, litsenziyalash.

Intellektual mulk huquqi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u tadbirdorlik faoliyatining samaradorligini oshirish va innovatsiyalarini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tovar belgisi kompaniyaning o'z mahsulot va xizmatlarini ajratib turish, iste'molchilar e'tiborini jalb qilish hamda bozor raqobatida ustunlikka ega bo'lishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada tovar belgilarining huquqiy muhofazasi va uning dolzarb jihatlari tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar davrida intellektual mulk nizolari tushunchasi va xususiyatlari sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Onlayn platformalarning ko'payishi, raqamli ularashishlar qulayligi va internetning global o'rni bilan intellektual mulk huquqlarining buzilishi yanada keng tarqalgan va hal qilish qiyin bo'lgan holatga keldi.

Aniqroq ma'lumot bersak, intellektual mulk huquqi – intellektual faoliyat natijasiga tegishli huquq. Mulk egasi ana shu intellektual mulk ob'yektlaridan o'z xohishiga ko'ra, har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqiga egadir. Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo'lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining roziligi bilangina yo'l qo'yiladi mutlaq huquq davlatning vakolatlari organi tomonidan beriladigan maxsus hujjat – patent, guvohnoma asosida vujudga keladi va huquqiy muhofaza qilinadi.

Ma'lumki, intellektual faoliyat eng tez rivijlanib borayotgan jarayon hisoblanadi. Yuksak sur'atlar bilan davom etayotgan bu jarayon natijasida intellektual faoliyatning yangi mahsullari vujudga kelmoqda. Insonning aqliy faoliyat natijalari

takrorlanmas hodisadir, uning kelgusida qanday natija ko'rsatishi oldindan ma'lum bo'lmaydi. Ijodiy faoliyat (aqliy, tafakkur) intellektual faoliyat bo'lib, uning natijasida fan, texnika, adabiyot yoki san'at sohasida yangi, ijodiy mustaqil mahsul yaratiladi va ushbu mahsul moddiy yoki nomoddiy ko'rinishda o'z aksini topadi.

Intellektual mulk obyektlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- intellektual faoliyat natijalari;
- fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, alomatlarini aks ettiruvchi vositalar;
- tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar;
- qonunlarda nazarda tutilgan intellektual faoliyatning boshqa natija va vositalari.

Intellektual mulk huquqlarining asosiy toifalariga quyidagilar kiradi:

- Mualliflik huquqi: G'oya ya'ni fikr va ma'lumotning muayyan bir ko'rinishdagi ifodalanishini tartibga soladigan huquqlar majmuidir. Mualliflik huquqi asarlarini, xususan badiiy, musiqiy, adabiy yoki ilmiy asarlarni, shuningdek, kompyuter dasturlari, ma'lumotlar bazalari va multimedia kontentini himoya qiladi. Mualliflik huquqi ijodkorlarga o'zlarining asl ijodlari asosida hosil bo'lgan asarlarni, ijro etish, ko'paytirish va tarqatishga huquq beradi.
- Patentlar: Patentlar yangi, foydali va aniq bo'lmagan ixtiolar va kashfiyotlarni himoya qiladi. Patent ixtirochiga patentlangan ixtironi cheklangan muddatga, odatda patentga talabnomaga topshirilgan kundan boshlab undan foydalanish, sotish yoki litsenziyalash uchun mutlaq huquqni beradi.
- Tovar belgilari: Tovar belgilari-bu korxona yoki tadbirkor tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmatlarni boshqalardan ajratib turuvchi belgi, nom yoki grafik tasvirdir. Bu belgilar mahsulot sifati, brend obro'si va iste'molchilarining tanloviga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, tovar belgilari korxona aktivlari sifatida moddiy bo'lmagan mulk shaklida iqtisodiy qiymatga ega.

Zamonaviy biznes muhitida tovar belgilari kompaniyalarning eng qimmatli aktivlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat mahsulot va xizmatlarni identifikatsiya qilish vositasi, balki biznesning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil hamdir.

Bundan tashqari, tovar belgisi— bu tovar yoki xizmatlarni boshqa shunga o'xhash tovar va xizmatlardan farqlashga imkon beruvchi belgi hisoblanadi. Tovar belgilari nafaqat korxonalarining marketing strategiyasida, balki intellektual mulk obyekti sifatida huquqiy himoyaga ham ega.

Tovar belgilarini huquqiy muhofaza qilish davlat tomonidan beriladigan eksklyuziv huquqlarga asoslangan bo‘lib, ushbu huquqlar quyidagi asosiyo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Ro‘yxatdan o‘tkazish: Davlat idoralari tomonidan tovar belgisi ro‘yxatga olinishi, uning qonuniy himoyasini ta’minlaydi.
- Patent va litsenziya: Tovar belgisiga patent olish va litsenziyalash uning foydalanish doirasini aniqlaydi.
- Huquqiy kafolatlar: Qonunchilik hujjatlari tovar belgisining ruxsatsiz ishlatalishining oldini olishga qaratilgan.

Tovar belgilari xalqaro darajada ham himoya qilinishi mumkin. O‘zbekiston quyidagi xalqaro shartnomalarning ishtirokchisidir:

1. Parij konvensiyasi – sanoat mulkini himoya qilishga oid asosiyo‘nalishlardan biri.
2. Madrid tizimi – tovar belgilarini xalqaro miqyosda ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi.

Tadbirkorlar tez-tez duch keladigan tovar belgilari bo‘yicha nizolarning asosiyo‘nalishiga quyidagilarni kiritishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bular: tovar belgisini noqonuniy ro‘yxatdan o‘tkazish; tovar belgisidan noqonuniy foydalanish; adolatsiz raqobat. Tovar belgisidan noqonuniy foydalanish asosan kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqarishda namoyon bo‘lib, uning mohiyatini tushunish uchun avvalo ushbu atamaning ma’nosini tushunib olish talab etiladi. „Kontrafakt“ tushunchasi lotin tilidagi *contrafactio* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “qalbaki” degan ma’noni anglatadi.

Internet o‘zining global miqyosidagi imkoniyatlari bilan axborotni yaratish, almashish va qabul qilish usullarini o‘zgartirib yubordi. Bu tarmoq hamkorlik va bilim almashish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni ochib bergen bo‘lsa-da, intellektual mulk huquqlarining keng miqyosda buzilishiga ham yordam berdi. Internet intellektual mulk huquqlarini buzishning turli shakllari jumladan, mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallarni ruxsatsiz tarqatishdan tortib, qalbakilashtirish va o‘g‘irlashga qadar qulay zaminga aylandi. Ushbu huquqlarni muhofaza qilish esa alohida ahamiyatga ega bo‘lib qoldi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, Internetda intellektual mulk huquqlarning buzilishi uchun javobgarlikni ko‘rib chiqish bir necha sabablarga ko‘ra juda muhimdir. Birinchidan, bu ijodiy va innovatsion tizimning yaxlitligini saqlash uchun zarurdir. Intellektual mulk huquqlari poymol qilinganda, ijodkorlar va innovatorlar o‘z mehnatlari samarasidan mahrum bo‘lib, qimmatli ijod va ixtirolarni ishlab chiqarishni davom ettirishga bo‘lgan rag‘batlarini susaytiradi. Bu esa o‘z navbatida yangilik va ijodkorlikni bo‘g‘ib, jamiyat taraqqiyoti va rivojiga to‘sqinlik qiladi. „Barcha hukumatlarda mualliflik huquqi muallifning shaxsiy manfaatlari va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanat tamoyiliga asoslanadi. Jamiyat asarlarga kirishdan

manfaatdor, muallif esa o‘z navbatida uning huquqlarini himoya qilinishidan. Hukumatning vazifasi esa har ikki tomonning o‘z manfaatlarini amalga oshirishiga imkon berishdir.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda, tovar belgilarining huquqiy muhofazasi intellektual mulk huquqining muhim yo‘nalishi bo‘lib, u tadbirkorlik va biznesni himoya qilishning asosiy vositalaridan biridir. O‘zbekiston qonunchiligi ham ushbu masalaga katta e’tibor qaratib, tovar belgilarining rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilishi va muhofazasini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, tadbirkorlar va korxonalar o‘z tovar belgilari huquqiy muhofazasiga jiddiy e’tibor qaratishlari lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. ОМОН ОҚЮЛОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК ҲУКУКИ. И.М.Мўминов номидаги Фалсафа ва хуқуқ институти. Тошкент, 2005 йил,
2. Мазаев Д. В. Гражданко-правовая защита прав на товарные знаки // Автореферат//«Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» Москва, 2011.
3. Mehmonov, Q. A. (2018). Civil legal protection of a database according to the legislation of foreign countries. Review of law sciences, 2(1), 11.

---

<sup>1</sup> Mehmonov, Q. A. (2018). Civil legal protection of a database according to the legislation of foreign countries. Review of law sciences, 2(1), 11.